“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=310

2025-yil
2-son
iyul
ISSN 3093-8546



Gender zo‘ravonlik muammosining nazariy-metodologik asoslari

Sevara Ishmuratova,
Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi
mustaqil izlanuvchisi
e-mail: s.ishmuratova@gmail.com

Аннотация. Мазкур мақолада гендер зўравонлик тушунчаси, унинг ҳуқуқий ва социологик таърифлари ҳамда амалиётда учрайдиган асосий шакллари таҳлил этилади. Муаллиф қабул қилинган қонун ҳужжатлари ва халқаро стандартлар асосида жисмоний, жинсий, психологик ва иқтисодий зўравонлик турларига алоҳида эътибор қаратади. Шундан келиб чиқиб, мақолада миллий ва халқаро тажрибалар муқоёсли таҳлил қилинади ва гендер зўравонликка қарши самарали чоралар белгиланади.

Калит сўзлар. гендер зўравонлик, жисмоний зўравонлик, психологик босим, иқтисодий зўравонлик, CEDAW, ҳимоя ордери

Аннотация. В статье анализируется понятие гендерного насилия, его правовые и социологические определения, а также основные формы, встречающиеся на практике. Особое внимание автор уделяет видам физического, сексуального, психологического и экономического насилия, определяемым в соответствии с принятым законодательством и международными стандартами. На основе этого в статье проводится сравнительный анализ национального и международного опыта, а также определяются эффективные меры борьбы с гендерным насилием.

Ключевые слова. гендерное насилие, физическое насилие, психологическое давление, экономическое насилие, CEDAW, охранный судебный приказ

Annotation. This article analyzes the concept of gender violence, its legal and sociological definitions, and the main forms encountered in practice. The author pays special attention to the types of physical, sexual, psychological, and economic violence based on adopted legislation and international standards. Based on this, the article provides a comparative analysis of national and international experiences and identifies effective measures to combat gender violence.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Keywords. gender violence, physical violence, psychological pressure, economic violence, CEDAW, protection order

Gender zoʻravonlik deganda shaxsning jinsi, ijtimoiy yoki gender identifikatsiyasi asosida unga nisbatan sodir etilgan zoʻravonlik harakati tushuniladi. Ushbu tushuncha inson huquqlari buzilishining bir koʻrinishi sifatida tan olinadi va u nafaqat shaxsga, balki butun jamiyatga salbiy ta'sir koʻrsatadi. Gender zoʻravonlik, odatda, patriarxal ijtimoiy tuzilmalar, tengsizlik, diskriminatsiya va stereotipik qarashlar bilan chambarchas bogʻliqdir. Gender zoʻravonlik tushunchasining shakllanishi 1970-yillardagi feministik nazariyalarda chuqur tahlil etilgan. Ushbu yondashuvlar zoʻravonlikni ijtimoiy tizimlar va kuch munosabatlarining mahsuli deb hisoblaydi. Masalan, radikal feministik nazariyada ayollarga nisbatan zoʻravonlik erkak hukmronlik mexanizmlarining bir koʻrinishi sifatida baholanadi. Sotsiologik yondashuvlar esa gender zoʻravonlikni ijtimoiy struktura va ijtimoiy rol taqsimotidagi nomutanosiblik bilan izohlaydi.

Gender zoʻravonlik faqatgina individual tajovuz emas, balki ijtimoiy institutlar, madaniy normalar va rasmiy siyosat orqali takror ishlab chiqariladi. Ayni paytda, genderga oid ijtimoiy stereotiplar (masalan, “erkak kuchli boʻlishi kerak”, “ayol itoatkor boʻlishi shart”) zoʻravonlikni oqilona koʻrsatish yoki uni oqlashga xizmat qiladi. Bu esa zoʻravonlikka qarshi kurashni murakkablashtiradi. Gender zoʻravonlik bir necha asosiy turlarga boʻlinadi. Har bir tur oʻziga xos psixologik, ijtimoiy va jismoniy oqibatlarga ega.

Jismoniy zoʻravonlik – bu turdagi zoʻravonlik tanaga zarar yetkazish yoki zarar yetkazish tahdidi orqali namoyon boʻladi. Urish, boʻgʻish, qiynoqqa solish, yondirish yoki qurol ishlatish orqali amalga oshiriladi. Jismoniy zoʻravonlik, ayniqsa, oilaviy kontekstda koʻp uchraydi va tez-tez ayollar yoki bolalar jabrlanuvchiga aylanadi.

Psixologik va hissiy zoʻravonlik – psixologik zoʻravonlikda insonning ruhiy salomatligiga zarba berish, unga doimiy bosim oʻtkazish, doʻq-poʻpisa qilish, tahqirlash, befarqlik koʻrsatish, ijtimoiy izolyatsiya qilish kuzatiladi. Bu holat koʻpincha tan olinmaydi, ammo uzoq muddatda ruhiy kasalliklar, oʻziga ishonchsizlik va depressiyaga olib keladi.

Jinsiy zoʻravonlik – jinsiy aloqa yoki shahvoniy harakatlarga majburlash, tahdid ostida rozi boʻlish, jinsiy tahqirlar yoki nomunosib teginishlar jinsiy zoʻravonlikka kiradi. Bu zoʻravonlikning eng ogʻir va jinoyat deb e’tirof etilgan shaklidir. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga koʻra, har uch ayoldan biri umrida kamida bir marta jinsiy zoʻravonlikka uchragan[1].

Iqtisodiy zoʻravonlik – bu turdagi zoʻravonlik moliyaviy resurslarni nazorat qilish, ayolni ishlashdan mahrum qilish, uni iqtisodiy mustaqillikdan chetlatish orqali amalga oshiriladi. Koʻpincha er-xotin munosabatida kuzatiladi. Misol uchun, ayolning bank kartasi erida boʻlishi, uning barcha xarajatlarini er nazorat qilishi iqtisodiy zoʻravonlikdir.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Ijtimoiy zo‘ravonlik – ijtimoiy izolyatsiya qilish, do‘stlar yoki qarindoshlardan ajratish, tashqi olamdan uzish holatlari ijtimoiy zo‘ravonlik deb qaraladi. Bu turdagi zo‘ravonlik jabrlanuvchini yolg‘iz, yordamga muhtoj holatda qoldiradi.

Madaniy va diniy zo‘ravonlik – muayyan madaniy urf-odatlar, diniy e’tiqodlar gender tengsizligini rag‘batlantiradigan vosita bo‘lishi mumkin. Masalan, ayolning o‘qishi, ishlashi yoki sayohat qilishi taqiqlanishi bu toifaga kiradi.

Texnologik zo‘ravonlik – zamonaviy texnologiyalar orqali sodir etiladigan zo‘ravonlik (kiberzo‘ravonlik), masalan, maxfiy ruxsatsiz fotosuratlar tarqatilishi, tahdidli xabarlar yuborilishi, parollar ustidan nazorat – bularning bari yangi shakldagi gender zo‘ravonlikka kiradi.

Gender zo‘ravonlik individual muammo emas, balki jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi global inqirozdir. U ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish va inson salohiyatini ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qiladi. Shuningdek, gender zo‘ravonlik natijasida ayollar ish faoliyatidan chetlashadi, bolalarning psixik salomatligi yomonlashadi va ijtimoiy ishonch darajasi pasayadi. Gender zo‘ravonlik – murakkab, ko‘p qirrali, turli shakllarda namoyon bo‘ladigan ijtimoiy fenomen bo‘lib, uning ildizlari ijtimoiy ongda, madaniy stereotiplarda va patriarxal strukturalarda yotadi. Zo‘ravonlikning har bir turi – jismoniy, psixologik, jinsiy, iqtisodiy yoki madaniy – inson huquqlari va gender tengligiga zid bo‘lib, uning oldini olish uchun chuqur tushuncha, huquqiy mexanizmlar va jamiyatning uyg‘oq pozitsiyasi talab etiladi. Shu sababli, gender zo‘ravonlikka qarshi kurashda ilmiy yondashuvlar, statistik tahlillar, hamda ijtimoiy-siyosiy mexanizmlarning uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega.

Gender tengsizligi va gender asosidagi zo‘ravonlik – bir-birini to‘ldiruvchi, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan o‘zaro bog‘liq hodisalardir. Gender tengsizligi, ya’ni jamiyatda erkak va ayollar o‘rtasida huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy resurslarga teng imkoniyatlar mavjud emasligi, zo‘ravonlik uchun qulay zamin yaratadi. Shu sababli, gender asosidagi zo‘ravonlikni bartaraf etish uchun avvalo gender tengsizlikning ildiz sabablari chuqur tahlil qilinishi kerak.

Gender tengsizligining ijtimoiy-iqtisodiy ildizlari: gender tengsizligi jamiyatda jinslararo rollar va javobgarliklarning stereotipik taqsimoti, ayollarning imkoniyatlarini cheklash va patriarxal ijtimoiy tuzilmalar orqali mustahkamlanadi. Ko‘plab rivojlanayotgan jamiyatlarda ayollar hal qiluvchi darajadagi iqtisodiy, siyosiy yoki ijtimoiy pozitsiyalardan mahrumdir. Natijada ular erkaklar tomonidan amalga oshiriladigan ekspluatatsiya va zo‘ravonlikka nisbatan himoyasiz holatga tushib qoladi. Jahon iqtisodiy forumining 2023-yil hisobotiga ko‘ra, gender tengsizlik indeksi bo‘yicha ayollar hali ham siyosiy vakillik, ish haqi va ta’lim olishda erkaklardan ancha ortda qolmoqda[2]. Bu tengsizlik zo‘ravonlikni ijtimoiy jihatdan to‘g‘ri deb ko‘rsatadigan muhitni yaratadi.

Patriarxal ijtimoiy tuzilmaning ta’siri: patriarxal tuzum erkaklarni kuch, hokimiyat va nazorat timsoli sifatida ko‘rsatadi, ayollar esa itoatkor, zaif va ikkilamchi subyekt sifatida qabul qilinadi. Bunday norma zo‘ravonlikni ijtimoiy maqbul harakat sifatida shakllantiradi, ayniqsa oila, nikoh va farzand tarbiyasida. Radikal feministik yondashuvlarga ko‘ra, gender zo‘ravonlik erkak hukmronligi va ayollarni nazorat qilish vositasidir. Zo‘ravonlik orqali patriarxal tuzum o‘z pozitsiyasini mustahkamlaydi[3].

Gender tengsizligi – zo‘ravonlikni davom ettiruvchi omil sifatida: gender tengsizligi nafaqat zo‘ravonlikni keltirib chiqaradi, balki uni davomli jarayonga aylantiradi. Jabrlanuvchi ayol iqtisodiy erkinlikdan, huquqiy himoyadan va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdan mahrum bo‘lgani sababli, zo‘ravonlik holatidan chiqish imkoniyatiga ega emas. Bu esa “zo‘ravonlik sikli” deb ataluvchi psixologik holatni yaratadi.

Gender stereotiplari va zo‘ravonlikni normalashtirish: jamiyatda keng tarqalgan stereotiplar – masalan, “ayol sabrli bo‘lishi kerak”, “ayol oila uchun chidashi kerak”, “erkak ayoliga qo’l ko’tarishi tabiiy” kabi qarashlar – zo‘ravonlikni nafaqat oqlaydi, balki uni yashirin va hal qilinmas muammo sifatida saqlab turadi. So‘rovnomalarga ko‘ra, ko‘plab ayollar o‘zlariga nisbatan sodir bo‘lgan zo‘ravonlikni “odatiy holat”, “oilaviy masala” sifatida qabul qiladi va bu haqda xabar bermaydi. Bunday ijtimoiy ong bevosita gender tengsizlikning mahsulidir.

Ta’limdagi gender tafovutlari va zo‘ravonlik riski: ta’lim olishdagi gender tengsizlik – ayniqsa qizlarning o‘rta va oliy ta’limdan chetda qolishi – ularning huquqiy, iqtisodiy va psixologik jihatdan o‘zini himoya qilish imkoniyatini cheklaydi. Bu esa ularni potentsial zo‘ravonlik qurboniga aylantiradi.

Iqtisodiy tengsizlik va moliyaviy ekspluatatsiya: ayollarning ishga kirishdagi, lavozimda ko‘tarilishdagi yoki o‘z ishini boshlashdagi cheklovlari ularni erkaklarga iqtisodiy jihatdan bog‘lab qo‘yadi. Natijada ular iqtisodiy zo‘ravonlik, ya’ni moliyaviy nazorat, daromadni tortib olish, ishlash huquqidan mahrum qilish kabi holatlarga ko‘proq duch keladi.

Gender tengsizligining qonunchilikdagi aks ettirilishi: agar qonunchilikda erkak va ayol huquqlari aniq va teng belgilanmagan bo‘lsa, bu holat genderga asoslangan zo‘ravonlikning huquqiy asosini mustahkamlab beradi. Ba’zi qonunlarda ayollarning tanlash, ajralish, meros olish yoki guvohlik berish huquqlari cheklangan bo‘lishi zo‘ravonlikni qonuniylashtirishga olib keladi.

Turli mamlakatlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar gender tengsizligi yuqori bo‘lgan jamiyatlarda ayollarga nisbatan jismoniy, jinsiy va psixologik zo‘ravonlik darajasi ham yuqori ekanini ko‘rsatadi[4]. Bu ikki hodisa o‘rtasidagi korrelyatsiya ijtimoiy siyosat ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayollar gender tengsizligi sharoitida o‘z huquqlarini himoya qilishda ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy to‘siqlarga duch keladi. Ular zo‘ravonlik haqida xabar berishga, himoya orderi olishga, yoki sudga murojaat qilishga

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

jur’at eta olmaydi. Shu tariqa zo‘ravonlik davom etaveradi. Gender zo‘ravonlikni bartaraf etishning asosiy yo‘li gender tengligini ta’minlashdir. Bu yo‘lda quyidagilar muhim:

qonunchilikni tenglikka asoslangan tarzda isloh qilish;
ayollarni iqtisodiy mustaqil qilish;
genderga oid stereotiplarni yo‘qotish;
jamoatchilik ongini o‘zgartirish.

Bu omillarni birlashtirgan holda amalga oshirish orqali gender zo‘ravonlikni ildizi bilan yo‘q qilish mumkin. Gender tengsizligi va gender asosidagi zo‘ravonlik o‘rtasidagi bog‘liqlik – bu oddiy statistik aloqadan iborat emas. Bu ikki hodisa ijtimoiy struktura, madaniyat, qonunchilik, ta’lim tizimi va oilaviy munosabatlar tizimining bir-birini ta’sirchan to‘ldiruvchi elementlaridir. Gender tengsizligi mavjud bo‘lgan joyda zo‘ravonlik har doim muqarrar shaklda namoyon bo‘ladi. Shu sababli, zo‘ravonlikka qarshi kurash faqat repressiv choralar orqali emas, balki chuqur ijtimoiy islohotlar, gender tengligini ta’minlash siyosati orqali amalga oshirilishi zarur.

Gender zo‘ravonlik insoniyat jamiyatining deyarli barcha bosqichlarida mavjud bo‘lgan murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lib, uning tarixiy shakllanishi, rivojlanishi va bugungi kungacha saqlanib qolgan shakllari tarixiy tahlilni talab qiladi. Gender zo‘ravonlikka qarshi kurash faqat hozirgi davr muammosi emas, balki ming yillik ijtimoiy strukturaviy muammolarning mahsulidir. Shu sababli, uning tarixiy ildizlarini tahlil qilish ushbu muammo mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Antropologik tadqiqotlarga ko‘ra, ibtidoiy jamiyatlarda jinslararo mehnat taqsimoti mavjud bo‘lgan, biroq bu taqsimot tengsizlik asosida emas, biologik zaruratga ko‘ra tashkil etilgan. Ammo jamiyat ijtimoiy va iqtisodiy murakkablashgan sari patriarxal munosabatlar kuchaya boshladi. Ayollarni himoya qilish bahonasida ularni cheklash mexanizmlari paydo bo‘ldi. Neolit davrida erkaklar ovchi, ayollar esa uy-ro‘zg‘or ishlari bilan shug‘ullangan. Bu holat erkaklar kuchini markazlashtirishga olib keldi, ayollarning ijtimoiy maqomi esa pasayib bordi. Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Gretsiya va Rim imperiyalarida patriarxat ijtimoiy normalashgan tizim sifatida faoliyat yuritgan. Erkaklar qonun chiqaruvchi, harbiy va diniy sohalarda hukmron bo‘lgan, ayollar esa nikoh orqali erkak egaligiga berilgan subyekt sifatida qaralgan. Hammurapining qonunlarida ayollarning ba’zi huquqlari mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, ular erkak nazorati ostida edi. Xiyonatda gumon qilingan ayol daryoga tashlanar edi. Qadimgi Gretsiyada ayollar siyosiy va ijtimoiy faoliyatda qatnashmagan, ular uyda saqlanishi lozim bo‘lgan obyekt sifatida ko‘rilgan.

O‘rta asrlarda gender zo‘ravonlik diniy qonunlar va urf-odatlar bilan kuchaytirildi. Ayollar “gunoh sababi”, “fitna vositasi” deb qaraldi va ularning jismoniy, jinsiy, iqtisodiy huquqlari cheklab qo‘yildi. Ayollar ustidan zo‘ravonlik qilish, ayniqsa jodugarlik ayblovi bilan ularni o‘ldirish, Yevropada keng tarqalgan edi. Inkvizitsiya davrida minglab ayollar qiynoqqa solingan, yoqilgan yoki surgun

qilingan. Ko‘plab feodal va tribal tuzilmalar erkaklarni oila boshi sifatida qonuniy kuch bilan ta’minlagan. Ayolning erga itoat qilishi diniy va huquqiy majburiyatga aylangan. Urish, jazolash, izolyatsiyalash “tarbiya” vositasi sifatida ko‘rilgan. Islom va Sharqdagi yondashuvda Qur’on va hadislarda ayollarga nisbatan adolatli munosabat talab qilinsa-da, ayrim urf-odatlar bu manbalarni noto‘g‘ri talqin qilib, zo‘ravonlikni oqlovchi vositaga aylantirgan.

XVIII–XIX asrlarda Yevropada ayollar huquqlari uchun kurash boshlangan. Bu davrda feminizmning birinchi to‘lqini vujudga keldi va gender zo‘ravonlik ilk bor sotsiologik muammo sifatida ko‘tarildi. XX asrda gender tengligi siyosatining kengayishi bilan gender zo‘ravonlikka qarshi huquqiy chora-tadbirlar qabul qilina boshlandi. Bu davrda gender zo‘ravonlik ilk bor xalqaro huquq doirasida tan olindi. BMT tomonidan ayollarga nisbatan zo‘ravonlik inson huquqlari buzilishi deb e’lon qilindi. 1979-yil CEDAW [5] konvensiyasi (Ayollarga nisbatan barcha turdagi kamsitishlarga barham berish) qabul qilindi. 1993-yil BMTning Vena deklaratsiyasida gender zo‘ravonlik inson huquqlari buzilishi sifatida e’tirof etildi[6].

O‘zbek xalqi tarixida ham patriarxal tuzum kuchli bo‘lgan. Ayollar asosan uy ishlariga mas’ul, iqtisodiy va ijtimoiy qarorlar esa erkaklar tomonidan qabul qilingan. Nikohda ajrashish, mulk meros qilish, farzandlar ustidan qaror chiqarish kabi masalalarda ayollar cheklangan. 1920-yillarda Sovet davrida xotin-qizlar harakati boshlangach, ilk marta ayollarning mehnatga bo‘lgan huquqlari tan olingan bo‘lsa-da, gender zo‘ravonlik holatlari yashirin ko‘rinishda davom etgan[7]. Dastlab gender zo‘ravonlik maxfiy, oilaviy masala sifatida qaralsa, hozirgi kunda u ijtimoiy, psixologik va jinoiy hodisa sifatida tan olinmoqda. Bu o‘zgarishlar jamiyatning madaniy yuksalishi, huquqiy ong oshishi va axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq. Tarixiy manzarada gender zo‘ravonlik jamiyatlar taraqqiyotining orqasidan ergashib kelayotgan muammo bo‘lib, uning shakllari jamiyat tuzilmasi, madaniyati, diniy e’tiqodlari va siyosiy institutlari bilan uzviy bog‘liq. Boshqacha aytganda, gender zo‘ravonlik har bir davrda mavjud bo‘lgan patriarxal strukturani aks ettiradi. Hozirgi kunning asosiy vazifasi bu strukturalarni tanqidiy tahlil qilib, ularni demokratik, teng va adolatli mexanizmlarga aylantirishdir.

Jismoniy zo‘ravonlik gender zo‘ravonlikning eng ko‘zga ko‘rinadigan va bevosita inson tanasiga tahdid soluvchi shaklidir. U ko‘pincha jazo, nazorat yoki hukmronlik vositasi sifatida qo‘llaniladi. Jismoniy zo‘ravonlik faqat kuch ishlatish akti bo‘lib qolmay, balki chuqur ijtimoiy, psixologik va gender asosli strukturalarning aksidir. Jismoniy zo‘ravonlik bu – insonning jismoniy yaxlitligi va salomatligiga qarshi qaratilgan har qanday harakat bo‘lib, unga zarar yetkazish, uni azoblash yoki og‘riq yetkazish niyatida amalga oshiriladi. U boshqa zo‘ravonlik shakllariga nisbatan osonroq aniqlanadi, biroq ko‘plab holatlarda huquqiy va ijtimoiy

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

mexanizmlar yetarli darajada ishga tushmaydi. Jismoniy zo‘ravonlik ko‘pincha oilaviy munosabatlarda, jumladan er-xotin, ota-ona va farzandlar, aka-uka va opa-singillar o‘rtasida kuzatiladi. Ayollar va bolalar bu turdagi zo‘ravonlikning asosiy jabrlanuvchilari bo‘lib qolmoqda.

Gender zo‘ravonlikning jismoniy ko‘rinishlari jamiyatdagi jinslar o‘rtasidagi kuch muvozanatining nomutanosibligidan kelib chiqadi. Ayollar, qiz bolalar va ayrim hollarda erkaklar (ayniqsa nogironlar, ruhiy kasalliklar bilan og‘riganlar) zaif guruh sifatida ushbu zo‘ravonlikdan ko‘proq aziyat chekishadi. Ko‘plab mamlakatlarda jismoniy zo‘ravonlik jinoyat sifatida baholanadi. Biroq oilaviy doiradagi zo‘ravonlik holatlari ko‘pincha huquqiy chora ko‘rilmasdan qolmoqda. Ko‘p hollarda jabrlanuvchi qo‘rquv, ijtimoiy bosim yoki iqtisodiy qaramlik sababli murojaat qilmaydi. Jismoniy zo‘ravonlik ko‘plab salbiy oqibatlarga olib keladi:

jismoniy jarohatlar va nogironlik;
doimiy stress va ruhiy tushkunlik;
oilaviy ajralishlar, farzandlar ruhiy travmasi;
ijtimoiy ajralish, o‘z-o‘zini ayblash, jamiyatdan chetlashish.

Jabrlanuvchilarda post-travmatik stress sindromi rivojlanadi, bu ularning keyingi hayot faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zi jamiyatlarda, ayniqsa patriarxal struktura kuchli bo‘lgan hududlarda, jismoniy zo‘ravonlik “tarbiyaning bir qismi”, “erkakning huquqi” yoki “ichki oilaviy masala” sifatida baholanadi. Bu esa zo‘ravonlikni yashiradi va qonuniy aralashuvni cheklaydi.

Zo‘ravonlik deganda ko‘pchilik odatda faqat jismoniy kuch ishlatishni tushunadi. Biroq zamonaviy sotsiologiya, psixologiya va huquqshunoslik fanlari nuqtai nazaridan zo‘ravonlik ko‘plab ko‘rinishlarga ega bo‘lib, ularning ba’zilari yashirin, noan’anaviy va murakkab tus kasb etadi. Ana shunday shakllardan biri – psixologik va hissiy tazyiqdir. Bu holat ko‘pincha “ko‘rinmas zo‘ravonlik” deb ham nomlanadi, chunki u jismoniy iz qoldirmaydi, biroq inson ruhiyati va ijtimoiy faoliyatiga chuqur zarar yetkazadi. Psixologik zo‘ravonlik – bu shaxsga nisbatan tahqirlash, kamsitish, manipulyatsiya qilish, izolyatsiya, doimiy nazorat, do‘q-po‘pisa, bepisandlik va ruhiy bosim orqali uni irodasiz, xavotirli yoki o‘ziga ishonchsiz holga keltirishga qaratilgan zo‘ravonlik turidir. Hissiy zo‘ravonlik esa subyektning hissiyotlari ustidan nazorat o‘rnatish, uning his-tuyg‘ularini rad etish, inkor qilish yoki kamsitish orqali amalga oshiriladi. Bu zo‘ravonlik shakli sekin, lekin barqaror tarzda insonning shaxsiyatini yemiradi.

Walker tomonidan ishlab chiqilgan “zo‘ravonlik aylana modeli”da psixologik bosqichlar jismoniy bosimdan oldin paydo bo‘lishi va zo‘ravonlikni davomli aylana tusiga kiritishi ko‘rsatilgan[8]. Gottman va Jacobson psixologik zo‘ravonlikni jismoniy kuchsiz bo‘lsa-da, ta’siri chuqurroq bo‘lishi mumkinligini asoslagan. [9] Psixologik zo‘ravonlikning ijtimoiy oqibatlari:

doimiy stress va xavotir;
o‘z-o‘zini qadrlashning pasayishi;

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

depressiya va o‘z joniga qasd qilish xavfi;
farzandlar ruhiyatiga salbiy ta’sir.

Gender asosidagi psixologik zo‘ravonlikni boshidan kechirgan ayollarning 60% dan ortig‘i klinik depressiya belgilari bilan kurashmoqda[10]. Ko‘pgina mamlakatlar qonunchiligida psixologik zo‘ravonlik alohida jinoyat sifatida belgilanmagan yoki isbotlash uchun qat’iy mezonlar mavjud emas. Psixologik va hissiy tazyiq – bu ko‘zga ko‘rinmas, ammo chuqur illatlarga sabab bo‘ladigan zo‘ravonlik shakli bo‘lib, uni aniqlash va oldini olish jiddiy ilmiy, huquqiy va ijtimoiy yondashuvni talab qiladi. Jismoniy zo‘ravonlikka qaraganda, bu zo‘ravonlik turi ko‘proq ichki zaiflik, xavotir, o‘ziga ishonchsizlik va yolg‘izlik hissi orqali insonning ruhiy holatini yemiradi. Gender tengligi tamoyillarini mustahkamlash, ijtimoiy madaniyatni o‘zgartirish va huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish orqali bu noan’anaviy, ammo xavfli zo‘ravonlik shakliga qarshi samarali kurashish mumkin.

Gender asosidagi zo‘ravonlik turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Ko‘p hollarda e’tibor jismoniy, jinsiy yoki ochiq tahdid shakllariga qaratilgan bo‘lsa-da, ko‘p holatlarda ayollar eng ko‘p aziyat chekadigan, lekin e’tibordan chetda qoladigan zo‘ravonlik shakli bu – iqtisodiy zo‘ravonlikdir. Ayniqsa uning yashirin ko‘rinishlari ayollarni moliyaviy, ijtimoiy va psixologik jihatdan mutlaqo qaram holatga keltiradi. Bu zo‘ravonlik shakli patriarxal ijtimoiy tizimlarning barqarorligi va gender tengsizlikni saqlab qolish vositasi sifatida faol ishlaydi. Iqtisodiy zo‘ravonlik deganda shaxsning iqtisodiy resurslarga egalik qilish, ulardan foydalanish va moliyaviy qarorlar qabul qilish huquqidan mahrum etilishi tushuniladi. Bu zo‘ravonlik turining mohiyati – moliyaviy vositalar orqali shaxs ustidan nazorat o‘rnatish, uni iqtisodiy jihatdan tobelikka tushirishdir. Feminist iqtisodiy nazariya iqtisodiy zo‘ravonlikni erkaklar tomonidan ayollar ustidan nazoratni saqlab qolish strategiyasi deb talqin qiladi[11]. Ekologik model [12] doirasida iqtisodiy zo‘ravonlik mikro (oila), mezo (mahalla, ish joyi), makro (siyosiy-iqtisodiy tuzum) darajalarida tahlil qilinadi.

Iqtisodiy zo‘ravonlik ko‘pincha an’anaviy gender rollari niqobi ostida amalga oshiriladi va shuning uchun u “normal holat” sifatida qabul qilinadi. Quyida ushbu zo‘ravonlikning eng keng tarqalgan yashirin ko‘rinishlari keltiriladi:

Daromad manbalarini cheklash yoki taqiqlash: ayolga ishlashga, tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga, o‘z moliyaviy mustaqilligini ta’minlashga yo‘l qo‘yilmaydi. “Uyda o‘tirgan ayol yaxshi ayol”, “men ishlayman, sen esa bolalarga qarashing kerak” kabi gender stereotiplari bu harakatni yashirib turadi.

Moliyaviy axborotdan uzish: zo‘ravon shaxs oilaviy budjet, bank hisoblari, kreditlar yoki qarzlar to‘g‘risidagi axborotni ayoldan yashiradi. Natijada ayol moliyaviy resurslarni rejalashtirish va nazorat qilish huquqidan mahrum bo‘ladi.

Moliyaviy qarorlarni mustaqil qabul qilish: iqtisodiy resurslar ustidan barcha qarorlarni erkak yakka o‘zi qabul qiladi: qanday

sarflash, nima sotib olish, kimga yordam berish – bularning barchasi ayol bilan maslahatlashmasdan amalga oshiriladi.

Oylikni tortib olish yoki boshqarishni o‘zlashtirish: ishlaydigan ayolning oyligi er tomonidan to‘liq nazorat qilinadi, ba’zan unga pul umuman berilmaydi. Bu ayolning o‘z shaxsiy ehtiyojlarini qondira olmasligiga olib keladi.

Xarajatlar uchun doimiy rozilik talab qilish: ayol har bir xarid uchun ruhsat so‘rashi, xaridni asoslash va isbotlashga majbur bo‘ladi. Bu unga moliyaviy qarorlar qabul qilishdagi mustaqillikni yo‘qotishga olib keladi.

Kredit yoki qarzni ayol nomiga rasmiylashtirish: zo‘ravon o‘z qarz majburiyatlarini ayol nomiga o‘tkazadi, shu bilan uni moliyaviy xavf ostiga qo‘yadi. Bu shakl ayolning moliyaviy mustahkamligiga bevosita tahdid soladi.

Uydan haydash yoki mulkdan mahrum qilish tahdidi: ayol eriga yoki qaynotasiga tegishli bo‘lgan uyda yashayotgan bo‘lsa, “istagan paytim seni chiqarib yuboraman” degan tahdidlar bilan uni nazorat ostida ushlab turiladi.

Farzandlar orqali moliyaviy manipulyatsiya qilish: farzandlar xarajatlarini to‘liq nazorat qilish, bolalarga ataylab xarajat qilmaslik orqali ayolga bosim o‘tkaziladi. Bu shakl hissiy va iqtisodiy tazyiqni birlashtiradi.

Patriarxal jamiyatlarda ayollar asosan erkaklar tomonidan moliyaviy ta’minlanadigan subyektlar sifatida ko‘riladi. Bu iqtisodiy qaramlik ularning moliyaviy haqiqatlardan uzoqlashishiga, moliyaviy savodsizligiga va iqtisodiy zo‘ravonlikni tan olmaydigan holatga tushishiga olib keladi. Iqtisodiy qaramlik ayollarning zo‘ravonlikdan chiqib ketishga qodir emasligining asosiy sababi sifatida qaraladi. Bu esa zo‘ravonlik siklini uzluksiz davom ettiradi.

Jinsiy zo‘ravonlik inson sha’ni, qadr-qimmati va tanasiga bevosita tajovuz qilish bo‘lib, u gender zo‘ravonlikning eng og‘ir shakli sifatida e’tirof etiladi. Bu turdagi zo‘ravonlik nafaqat jismoniy, balki ruhiy va psixologik darajada chuqur iz qoldiradi. Xususan, majburiy jinsiy munosabatlar jamiyatdagi patriarxal tizim, gender tengsizligi, ijtimoiy sukunat va huquqiy bo‘shliqlar fonida barqaror tus olgan. Ayniqsa, jinsiy zo‘ravonlik ko‘pincha shaxslararo munosabatlarda, nikoh doirasida yoki ishonchga asoslangan aloqalarda sodir bo‘lishi uni aniqlash va huquqiy baholashni murakkablashtiradi. Jinsiy zo‘ravonlik shaxsning roziligisiz, tahdid, bosim, majburlash yoki zaif holatidan foydalanib amalga oshirilgan har qanday jinsiy harakatdir. Bu nafaqat zo‘rlashni, balki jinsiy mulohazalar, majburiy teginishlar, jinsiy zo‘ravon kontentga majburlash, jinsiy tahdidlar va istalmagan jinsiy e’tiborni ham o‘z ichiga oladi. Feminist yondashuvlar jinsiy zo‘ravonlikni erkak hukmronligi va ayol ustidan kuch nazoratining davomiy shakli sifatida izohlaydi[13]. Psixodinamik yondashuv esa jinsiy zo‘ravonlikni tajovuzkor shaxsning ichki konfliktlari va nazoratga ehtiyoji bilan bog‘laydi[14].

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Jinsiy zo‘ravonlik va majburiy munosabatlar muammosi gender tengsizligi, patriarxal tafakkur va huquqiy bo‘shliqlar bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, rozilik konsepsiyasining yo‘qligi, jinsiy aloqa ustidan erkak hukmronligi va ayollarning iqtisodiy-ijtimoiy qaramligi bu zo‘ravonlik shaklini barqarorlashtiradi. Jinsiy zo‘ravonlik faqat jabrlanuvchining muammosi emas, balki butun jamiyatning axloqiy inqirozidir. Shu boisdan, unga qarshi kurash tizimli, huquqiy, ma’rifiy va madaniy asosda olib borilishi lozim.

Har qanday jamiyatda zo‘ravonlikning shakllanishi va davomiyligi nafaqat shaxsiy psixologik omillar bilan, balki chuqur ildiz otgan madaniy va mentalitetga oid omillar bilan ham bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, gender asosidagi zo‘ravonlik, ya’ni ayollarga nisbatan kamsitish, nazorat, jismoniy va psixologik tajovuz ko‘rsatish holatlari patriarxal madaniyat, an’anaviy jinsiy rol tasavvurlari va qadriyatlar tizimi bilan murakkab tarzda uzviy bog‘lanadi. O‘zbek jamiyatida ham gender zo‘ravonlikka sabab bo‘luvchi ko‘plab madaniy-mentalitet omillar mavjud bo‘lib, ular ko‘pincha normativ, diniy yoki axloqiy asoslar bilan niqoblanadi. Sotsiologik nuqtai nazardan, madaniyat va mentalitet:

shaxslarning ijtimoiy rolini belgilaydi;

ijtimoiy institutlar faoliyatini yo‘naltiradi;

ma’qullanadigan yoki rad etiladigan xatti-harakatlarni belgilaydi.

Pierre Bourdieuning “habitus” konsepsiyasiga ko‘ra, jamiyatdagi harakatlar individning ongli tanlovi emas, balki chuqur madaniy tasavvurlarga asoslangan odatga aylangan mexanizmdir[15]. Ko‘plab an’anaviy jamiyatlarda erkak va ayol rollari qat’iy belgilangan. Masalan: erkak – oila boshlig‘i, ta’minotchi, hukmron; ayol – itoatkor, mehribon, xizmatkor va sabrli bo‘lishi kerak. Bu gender rollari har qanday murosasizlikda erkakning kuch ishlatishini yoki ayolni nazorat qilishini oqlovchi madaniy asos sifatida qaraladi.

Ayolning “oila uchun qurbon bo‘lishi” stereotipiga ko‘ra, ayol har qanday sharoitda oilani saqlab qolishi, erining harakatlariga chidashi kerak. Bu esa zo‘ravonlikni “tabiiy” holga aylantiradi. “Uy ichidagi muammo – uyda qolishi kerak” prinsipi tufayli ayollar zo‘ravonlik haqida sukut saqlaydi, tashqi aralashuvdan qochadi va jamiyatda bu muammo ko‘rinmas bo‘lib qoladi. Ko‘pgina holatlarda diniy matnlar yoki an’anaviy urf-odatlar noto‘g‘ri talqin qilinib, ayollar ustidan nazorat o‘rnatish vositasiga aylanadi. “Er ayolni urishi mumkin” degan noto‘g‘ri tushunchalar madaniyatda o‘z o‘rnini topgan va legitimlashtirilgan.

Agar jamiyatda zo‘ravonlik madaniy qabul qilingan norma sifatida qaralsa, bu holat huquqiy yoki psixologik darajada tan olinmaydi. Masalan, “uradi – demak yaxshi ko‘radi” degan ibora zo‘ravonlikni romantizatsiya qiladi. Ko‘pgina madaniyatlarda ayolning moliyaviy erkinligi past, bu esa uni zo‘ravonlikdan chiqib ketish imkoniyatidan mahrum qiladi. U “sharaf”, “uyat” kabi

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

madaniy tushunchalar bilan bog‘liq holda sukut saqlashga majbur bo‘ladi. Agar ayol zo‘ravonlik haqida gapirsa, u “uyatli”, “oila buzuvchi”, “sabrsiz” deb baholanadi. Bu esa psixologik tazyiqni kuchaytiradi.

Matbuot madaniyatni shakllantiruvchi asosiy vositalardan biridir. Agar ommaviy axborot vositalarida gender zo‘ravonlik masalalari stereotiplashtirilgan, noto‘g‘ri yoki yuzaki tarzda yoritilsa, bu mentalitetning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Teledasturlarda ayol obrazi faqat mehribon ona yoki uy bekasi sifatida ko‘rsatiladi.

Zo‘ravonlik holatlari faqat sensatsion tarzda yoritilib, muammoning mohiyati chetlab o‘tiladi. Madaniy-mentalitet omillari gender zo‘ravonlikning ijtimoiy asosi bo‘lib, uni yashirin, ko‘rinmas va normativ tusda saqlab turadi. Bu omillar faqat alohida shaxslar xatti-harakati sifatida emas, balki jamiyatning ongida, urf-odatlarida, qadriyatlarida chuqur ildiz otgan. Shu bois, gender zo‘ravonlikka qarshi kurash faqat qonunlar yoki jazolar bilan emas, balki madaniyat va mentalitet darajasida olib borilishi lozim.

Gender zo‘ravonlik dunyo miqyosida eng keng tarqalgan va chuqur ildiz otgan ijtimoiy muammolardan biridir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST), Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) kabi global institutlar ushbu muammoni e’tirof etgan holda, yillik statistik hisobotlar va xalqaro ko‘lamdagi tadqiqotlar orqali gender asosidagi zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqmoqda. Bu muammo global miqyosda inson huquqlarining buzilishi, gender tengligiga qarshi qaratilgan struktural zo‘ravonlik va ijtimoiy adolatsizlik ifodasidir. 2022-yilda dunyo bo’yicha deyarli 89000 ayol o‘ldirilgan, ulardan 48 800 nafar ayol va qizlar o‘z turmush o‘rtoqlari yoki boshqa oila a’zolari tomonidan o‘ldirilgan[16]. Bu shuni anglatadiki, o‘rtacha har kuni 133 dan ortiq ayol yoki qiz o‘z oilasidagi kimsa tomonidan hayotdan mahrum etilgan.

JSST 2021-yilda 161 davlatni qamrab olgan metatadqiqot asosida quyidagi natijalarni e’lon qilgan [17]: 15-49 yoshli ayollarning 27% hayotida kamida bir marta turmush o‘rtog‘i tomonidan zo‘ravonlikka uchragan. Kam daromadli davlatlarda bu ko‘rsatkich 33% dan yuqori, yuqori daromadli davlatlarda esa 23% atrofida. Jinsiy zo‘ravonlik holatlari ko‘p hollarda hujjatlashtirilmaydi, bu esa statistikani kamaytiradi. 2022-yilgi “Violence and Harassment at work” hisobotiga ko‘ra[18]: Har to‘rtinchi ayol (24.2%) mehnat faoliyati davomida kamida bir marta jinsiy tazyiqqa uchragan. Mehnat bozoridagi gender asimmetriya, ayollarni ko‘proq past lavozimli, muhofazasiz ish joylarida to‘plangani bilan bog‘liq. Ko‘plab jabrlanuvchilar zo‘ravonlik haqida og‘iz ochmaydi. Bu sababli ko‘p holatlar hisobot qilinmaydi va statistik raqamlarda aks etmaydi. Ba’zi davlatlarda gender zo‘ravonlikni aniqlash mezonlari farqlanadi. Bu esa ma’lumotlar solishtirilishini qiyinlashtiradi. Genderga oid zo‘ravonlikka oid savollarni berishning o‘zi ba’zi jamiyatlarda qabul qilinmaydi yoki tabular ostida qolgan. Bu global statistik tahlilni cheklaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO). Violence against women – Key facts. – 25.03.2024 –

World Economic Forum. Global Gender Gap Report 2023. – https://www.weforum.org/publications/global-gender-gap-report-2023/digest/

Simply Psychology. Radical feminism: Definition, Theory & Examples –

Johnson N.L., Benner M., Lipp N.S., Siepser C.F., Rizvi Z., Lin Z., Calene E. Gender inequality: A worldwide correlate of intimate partner violence // Women's Studies International Forum. – 2024. – Vol. 107. – 103016

Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women (CEDAW). –1979.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Declaration on the Elimination of Violence against Women. – 1993.

Ulyanova S. Socio-Cultural Leisure Space of Soviet Women in 1920s // European Proceedings of Social and Behavioural Sciences. – 2018. – P. 1377-1386.

Walker L. E. The Battered Woman. – New York: Harper & Row, 1979. – P. 91-92.

Jacobson N. S., Gottman J. M. When Men Batter Women: New Insights into Ending Abusive Relationships. – New York: Simon & Schuster, 1998. – P. 56-61.

Beydoun H. A., Beydoun M. A., Kaufman J. S., Lo B., Zonderman A. B. Intimate Partner Violence Against Adult Women and Its Association with Major Depressive Disorder, Depressive Symptoms and Postpartum Depression: A Systematic Review and Meta-Analysis // Social Science & Medicine. – 2012. – Vol. 75, No. 6. – P. 959–975.

Waring M. If Women Counted: A New Feminist Economics. – New York: Harper & Row, 1988. – 386 p.

Heise L. L. Violence against women: An integrated, ecological framework // Violence Against Women. – 1998. – Vol. 4(3): P. 262-290.

Ghanim D. Gender Violence: Theoretical Overview // Gender and Violence in the Middle East. – Vol. I. – 2012. – P. 57-67.

Yakeley J. Psychodynamic approaches to violence // BJPsych Advances. – 2018. – Vol. 24, No. 2. – P. 83-92.

Bourdieu P. Outline of a Theory of Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – P. 86-87.

UN Women; UN Office on Drugs and Crime (UNODC). Gender-related killings of women and girls (femicide/feminicide): Global estimates of female intimate partner/family-related homicides in 2022 – New York/Vienna: UN Women & UNODC, 2023.

The Lancet Commission / WHO. Global, regional, and national prevalence estimates of physical or sexual, or both, intimate partner violence against women in 2018 // The Lancet. – 2022. – Vol. 399, Issue 10327. – P. 1282-1291.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

International Labour Organization; Lloyd’s Register Foundation; Gallup. Experiences of violence and harassment at work: A global first survey – Geneva: ILO, 05.12.2022. https://www.ilo.org/publications/major-publications/experiences-violence-and-harassment-work-global-first-survey